

VATANPARVAR YOSHLAR TARBIYASIDA OILANING O'RNI

T.M. Burxanov

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi dotsenti,
p.f.f.d. (PhD), dotsent.*

O.I. Xamidov

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Bo'lim boshlig'i*

Annotatsiya: Mazkur maqolada vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda, oilaning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy tizimda yosh avlodning ta'lif va tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish faqat hukumatimizning yoki maktablarning emas, balki har bir ota-onanining ham muqaddas burchlari ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, xalq, qadriyat, manfaat, jamiyat, mahalla, faollar, tarbiya, maslahatchi.

Аннотация: В данной статье объясняется, что забота об образовании и обучении молодого поколения в социальной системе, социальные обязанности семьи по воспитанию патриотической молодежи, являются не только обязанностью нашего правительства или школ, но и также каждого родителя.

Ключевые слова: Семья, люди, ценности, интересы, общество, соседство, активисты, образование, консультант.

Abstract: This article explains that caring for the education and training of the younger generation in the social system, the social responsibilities of the family to raise patriotic youth, are not only the responsibility of our government or schools, but also of every parent.

Key words: Family, people, values, interests, society, neighborhood, activists, education, consultant.

Jamiyatda oila, farzand deb atalmish muqaddas tushunchalar xalqimiz hayotida muhim qadriyatlarga aylangan. Mustaqillik yillarining ilk kunlaridan oila, ona va bola salomatligi, barkamol avlodni ta'lif-tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratilib, bu borada hozirgi kungacha qator islohotlar amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida - Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega deb etirof etilgan.[1]

Insondagi eng ezgu fazilatlar, uning dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan munosabati dastlab oilada shakllanadi. Darhaqiqat, oila – muqaddas qo‘rg‘on. Nikoh esa ana shu qo‘rg‘onning ustunidir. Uni hech narsa bilan qiyoslab yoki almashtirib bo‘lmaydi.

Huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatni rivojida oilaning o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham oilani saqlash, uni mustahkamlash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bilan birga farzandlar tarbiyasi uchun nafaqat oila, balki har birimiz mas’ulmiz.

Oilani muqaddas bilish xalqimizning azaliy qadriyatlardan. Oila manfaatlarini himoyalash, jamiyatdagi mavqeい va maqomini yanada yuksaltirish, yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Unda yosh kelin-kuyovlar, huquqshunos, psixolog olimlar, mahalla, xotin-qizlar qo‘mitalari faollari, maslahatchilar va masjid imom-xatiblarining o‘rni ham beqiyosdir.

Ha, oila jamiyatning bir bo‘lagidir. Mustahkam oila – mustahkam jamiyatdir. Oilani bir ulkan daraxtga qiyoslasak, uning baquvvat tanasi va ildizi ota va onadir. Shunday daraxtninng shohlari ham sog‘lom va ko‘rkam bo‘ladi. Ildiz va tana ota-onal ekan, bunday sog‘lom tana va ildizdan albatta sog‘lom shaxslar, ya’ni sog‘lom farzandlar dunyoga keladi.

Bizning milliy tabiatimiz, urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo‘lgan har qanday zararli ta’sirlar, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi turishda, va albatta yosh avlodni vatanparavar etib tarbiyalashda, azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda oilaning roli hamda uning ahamiyati juda katta.

Bu borada oila vazifalarini shunchaki sanab o‘tish emas, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo‘jalik-maishiy va ikkinchi tomondan emotsiyal va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi vazifalarga farqlash muhim. Shuni ham aytib o‘tish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsiyal va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda.

Oila - demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim funksiyalarni bajaradi. Shuning uchun jamiyat va davlat oilaning farovon bo‘lishidan manfaatdordir.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunining 5- moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ulardan biri: “yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish” bo‘lib, oilada yoshlarni hayotga tayyorlashda har tomonlama e’tibor berilishiga urg‘u beriladi.[2]

Oila va mahallada sog‘lom muhit mavjud bo‘lgandagina, ularda har tomonlama sog‘lom, barkamol inson shakllanadi. Shuning uchun ham yurtimizda oila va nikoh davlat himoyasi ostiga olingan va uning ma’naviy-tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishga shaxsan Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilgan. Yosh avlodning munosib kamolga yetishi uchun kurash xar bir ongli insonning muhim vazifasi, u aholi tinchligi, osoyishtaligini ta’minlovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Yoshlar tarbiyasi, xususan, jismonan baquvvat, aqlan sog‘lom, umuminsoniy madaniyat darajasi yuqori, zamonaviy bilim va kasbga ega bo‘lgan kelajak avlodni voyaga yetkazishda mahallaning tutgan muhim o‘rni o‘zgachadir.

Insonning oilada shakllangan va mahallada sayqal topgan iymon-e’tiqodi, odobi, oriyati va vijdoni, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib, xalq manfaatlari, o‘zaro inoqlik va hamkorlik his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashib, jamiyatda sog‘lom munosabatlarinining shakllanishiga olib keladi.

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma’lum bir vazifalarini bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta’sirini, ikkinchi tomondan esa umumi ijtimoiy tizimda oilaning o‘rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) vazifalarini hisobga olish lozim. Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy vazifalarini bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv). Bu haqda sharq allomalari Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqalar o‘z asarlarida yozib qoldirganlar. Albatta, bu sanab o‘tilganlar ozirgi zamon oilasini asosiy vazifalarining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Chunki ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo‘jalik va o‘zaro yordam kabi vazifalar hozirgi zamon oilasining muhim vazifalari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan, sotsiolog olimlar (U. M. Sverdlov, V. A. Ryasenov, V. P. Klyushnikov) esa inson

zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo‘jalik vazifalarini farqlaydi; S. D. Laptenok xo‘jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a’zolari dam olishi - hordig‘ini tashkil etish; N. G. Yurkevich - ma’naviy muloqot, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo‘jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta’minalash, dam olishni tashkil qilish, o‘zaro moddiy va ma’naviy qo’llab-quvvatlash; A. G. Xarchev - aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo‘jalik, iste’mol va dam olishni tashkil qilish kabilarni farqlaydi. Mana yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, qator oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy vazifalari turlicha klassifikatsiya qilinmoqda.[3]

Demak, oila va mahalla har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlovchi, ma’naviy va jismonan barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makonlardir. Insonning inson bo‘lib shakllanishida, hayotda o‘z o‘rnini topishi, el-yurt ichida izzat-hurmatga ega bo‘lishi, yuksak odob-ahloq qoidalarini o‘zida mujassam etishida u yashab turgan oila va mahalla – asosiy poydevordir. Bu poydevorning mustahkamligi oilaviy an’analarning bardavomligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligini ta’minalashi, ota-onalar va keksa avlodning jamiyatdagi halol mehnati, oila va turmush doirasidagi shaxsiy o‘rnaki, surriyotlarga beradigan oqilona o‘g‘itlar, cheksiz va samimiy g‘amxo‘rligiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Barchalarimizga ma’lumki, bugungi kundagi yoshlar kelajakda bizlarning merosxo‘rlarimiz va hayotning barcha sohasidagi katta-kichik vazifalarni egallovchi o‘rnbosarlarimizdir. Har bir davrning o‘ziga xos tabiat va sharofati bo‘lganidek, fan va texnika jadal taraqqiy etib borayotgan bizning asrimizda ham yoshlar tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasbu hunarlari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlari ham o‘sib borishi zarur. Yosh avlodning ta’lim va tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish faqat hukumatimizning yoki maktablarning emas, balki har bir ota-onanining ham muqaddas burchlaridan hisoblanadi.

Har bir ota-onan o‘z farzandini yaxshi, barkamol inson bo‘lib yetishishini orzu qiladi. Katta bo‘lib jamiyatdan o‘ziga munosib o‘rinni topib egallagach, vataniga sodiq, elu xalqining xizmatiga tayyor, vijdonli va diyonatli bo‘lishligini, albatta, har bir farzand o‘stirgan ota-onan niyat qiladi. Lekin har bir ota-onanining ham o‘z farzandlariga mehr-oqibati va tarbiyaviy munosabati bir xil bo‘lavemas ekan. Ayrim ota-onalar bola tarbiyasi xususida juda beparvolik qiladilar. Ular uchun bu dunyoda faqat o‘z shaxsiy yumushlari, moddiy mablag‘ to‘plash yo‘lidagi bordi-keldilari bиринчи o‘rindagi vazifadek, oila a’zolarining axloqiy tarbiyalari bilan shug‘ullanish ikkinchi darajali ish ko‘rinadi.

Onaning burchlaridan yana biri farzandga mehribonlik ko‘rsatib, uni turli aziyat beradigan narsalardan saqlagan holda vaqtida oziqlantirib, yuvib-tarab, toza kiyintirib, shamollab qolishiga yo‘l qo‘ymay, uni parvarish qilishda erinchoqlik yoki dangasalik qilmay doimo hushyor va undan xabardor bo‘lishlikdir. Shuning uchun siz bilan biz, ota-onalar, murg‘ak chaqaloqlarimizni erkabal, ardoqlab o‘stirar ekanmiz, faqat ularni jismoniy sog‘lig‘i, moddiy ta’mnoti to‘g‘risida emas, balki ularning ma’naviy boyliklarini, insoniy fazilatlarini barkamol qilish to‘g‘risida ham qayg‘urib borishimiz kerak bo‘ladi.

Buning uchun ularni yoshlik chog‘laridan boshlab ilmu-ma’rifatga qiziqtirib, o‘rgatib borishga to‘g‘ri keladi. Zero, ilmu fanning qaysi sohasida bo‘lsa ham qiziqish paydo qilib, o‘qib, o‘rganib ma’lumot hosil qilgan har qanday inson, albatta, odamiylik xususiyatlariga ma’lum miqdorda bo‘lsada, ega bo‘ladi. Alloh taolo Qur’oni karimda: “...O‘qib ilm orttirganlar bilan o‘qimaganlar teng bo‘ladilarmi...?” – deb ilmu fanga targ‘ib qiladi.[4]

Shuning uchun oilada ota-onaning farzandga nisbatan eng muhim burchlaridan biri uni yoshligidan boshlab ilm olishga qulay sharoit yaratib berish, ulg‘aygan sari biror o‘ziga munosib kasbu hunar tanlashga yo‘l ko‘rsatib borishlaridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, holining, ayniqsa oila a’zolarining ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda tarbiya va ta’limning yangi shakllari va vositalarini joriy etish davr taqozosi bo‘lmoqda. Bu muhim vazifalarni amaga oshirish uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida “Ota-onalar Kengashlari”ni tashkil etish va uning faoliyatini doimiy ravishda olib borish lozim. Chunki, aynan “Ota-onalar Kengashlari”ni ota-onalarni bola tarbiyasi ilmidan voqif qiluvchi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantiruvchi, aholining ma’rifiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy savodxonligi va malakasini oshiruvchi jamoatchilik maktabi deb hisoblash mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar;

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston. 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni. 2016 yil 14 sentabr.
3. Oila psixologiyasi. G‘. B. Shoumarov tahriri ostida. T.:“Sharq”. 2010 yil.
4. Qur’oni Karim (ma’nolar tarjimasi). T.:“Cho‘lpon”, 1992 yil.